



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 17-dekabr

727-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 12-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda davlat tashkilotlarining aloqa markazlari faoliyatini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 27-noyabrda 790-son qarori ijrosi haqida”gi 597-6-0-Q/24-son qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda davlat tashkilotlarining aloqa markazlari faoliyatini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 27-noyabrda 790-son qarori hamda shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 12-dekabrda 595-6-0-Q/24-son qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 12-dekabrda 597-6-0-Q/24-son qarori rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-noyabrda 790-son qarori bilan:

Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda-“O‘zkomnazorat” inspeksiyasi) tomonidan raqamli texnologiyalarni joriy etishda haqqoniy raqamlar, ma‘lumotlar va ko‘rsatkichlarga erishish hamda telekommunikatsiya tarmoqlarining holati, operator va provayderlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini real vaqt rejimida tizimli monitoring qilib borish imkonini beruvchi “Raqamli nazorat” kompleks axborot tizimi joriy etilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

belgilanishicha:

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda davlat tashkilotlari aloqa markazlarining texnik faoliyati “O‘zkomnazorat” inspeksiyasi tomonidan “Raqamli nazorat” kompleks axborot tizimi orqali nazorat qilinishi hamda baholanishi;

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda davlat tashkilotlari aloqa markazlarining axborot tizimlari “Raqamli nazorat” kompleks axborot tizimi bilan bosqichma-bosqich o‘zaro integratsiya qilinishi;

“O‘zkomnazorat” inspeksiyasi respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda davlat tashkilotlarining aloqa markazlari reyestrini yuritishi;

quyidagilarni nazarda tutuvchi Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda davlat tashkilotlari aloqa markazlarining texnik faoliyatini nazorat qilish hamda baholash tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

aloqa markazlarining texnik faoliyatini “O‘zkomnazorat” inspeksiyasi tomonidan “Raqamli nazorat” kompleks axborot tizimi orqali nazorat qilish va baholash tartibi;

aloqa markazlarining texnik faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari;

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda davlat tashkilotlarining aloqa markazlari reyestrini yuritish tartibi belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abusalomov, “O‘zbektelekom” AK Mingbuloq filiali (U.Xashimov), tegishli manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda:

2025-yil 1-oktabrga qadar aloqa markazi faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatga muvofiq o‘zlarining (shu jumladan, autsorsing asosida tashkil etilgan) aloqa markazlari faoliyatiga tegishli dasturiy va texnik qurilmalarni joriy qilgan holda, aloqa markazlari axborot tizimlari “Raqamli nazorat” kompleks axborot tizimi bilan to‘liq integratsiya qilinishini ta’minlasin;

aloqa markazining texnik faoliyatini baholash uchun integratsiya jarayonida zarur bo‘lgan texnik ko‘rsatkichlarni olish imkoniyatini yaratsin;

aloqa markazini zarur miqdorda operatorlar bilan ta’minlash yoki autsorsing xizmatini yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rsin.

Belgilansinki, mazkur bandeda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar mahalliy hokimiyat organlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov